# EKOLOGIYA, ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA BARQAROR RIVOJLANISH TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI

**Z. A.Mirzayeva**
**N. J.Abdullayev**
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Tel:+998500457730
Email: mirzayevaziyoda691@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24138322***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish konsepsiyani joriy etishdagi mavjud muammolari hamda ularning yechimlari tahlil qilingan va pedagogik mexanizmlari ishlab chiqishga qaratilgan. Tahlilar shuni ko'rsatdiki, amaldagi ta'lim jarayonida nazariy ekologik bilimlar bilan cheklanmoqda. Shuningdek, fanlararo integratsiyaning yetarsizligi, loyihaga asoslangan ta'lim metodikalarning tanqisligi va pedagog kadrlarning zamonaviy interaktiv yondashuvlar qo'llashdagi bo'shliqlari asosisiqlar sifatida aniqlandi va ularni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

***Kalit so'zlar;*** *barqaror rivojlanish ta'limi(ESD), ekologik madaniyat, BRM 4.7, fanlararo integratsiya, loyihaga asoslangan ta'lim, ta'lim sifatini oshirish.*

***Abstract:*** *This article analyzes the existing problems in introducing ecological education and the concept of sustainable development into the continuing education system, and aims to develop their pedagogical mechanisms. The analysis showed that the current educational process is limited to theoretical ecological knowledge. Furthermore, the lack of interdisciplinary integration, the shortage of project-based learning methodologies, and gaps in modern interactive approaches among pedagogical staff were identified as key bottlenecks, and practical recommendations for their development were formulated.*

***Keywords:*** *Education for Sustainable Development (ESD), ecological culture, SDG 4.7, interdisciplinary integration, project-based learning, improving the quality of education.*

Dunyo miqyosida ekologiya va atrof-muhitni muhofazasini ta'minlash uchun ko'plab targ'ibot ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yurtimizda ham ekologiya muhofazasi uchun yetarlicha tar'ibot ishlari tashkil etilidi. Ekologiyani ta'lim jarayonlariga bog'lagan holatda, ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'rgatib kelinmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham ekologik barqarorlik va ta'lim sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda ta'lim vazirligi bilan birgalikda qo'shma tashabbuslari tashkil etilgan [1]. Bu orqali uzluksiz ta'limdagi yoshlarimizda ekologik madaniyatini shakllantirish va atrof-muhitini muhofaza qilishga jalab etish ta'minlanadi [2]. Ammo, aksariyat ta'lim muassasalarida ekologiya fani faqat biologik-nazariy tushunchalar bilan cheklanib qolmoqda; o'quvchida esa ekologiya fanini faqat nazariy bilimlarga tayangan holatda ekologik mas'uliyat, resurslarni tejash va barqaror qaror qabul

© **Namangan davlat pedagogika instituti** | **Tabiiy fanlar kafedrasi**
© "**Smart Quill Publishing" nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**

qilish ko‘nikmasi ya’ni amaliy komponentlarni yetarlicha shakllanishda ma’lum to‘siqlarga duch kelinmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etishda biz tashkil etishimiz lozim bo‘lgan masalalar bu ta’lim muassalarida ekologik madaniyatini yuksaltirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning asosiy maqsadi sifatida uzluksiz ta’lim tizimida ekologiyani va barqaror rivojlanish ta’lim tizimini takomillashtirishning amaliy mexanizimlarini ishlab chiqish hamda mavjud to‘siqlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqotda uzluksiz ta’lim tizimdagi ekologiya va ta’limni rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni o‘rganish hamda ularning yechimlarini asoslash uchun nazariy-tahliliy va qiyosiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Amaliy tajribalar o‘rinida mavjud ilmiy-nazariy manbalar va normativ-huquqiy baza tizimlari o‘zaro tahlil qilindi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlar va manbalar tahliliga ko‘ra: Xalqaro va mahalliy ilmiy bazalardagi (Google Scholar, ResearchGate hamda ilmiy nashrlar) barqaror rivojlanish ta’limi hamda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga bag‘ishlangan so‘nggi yillardagi ilmiy maqola va tadqiqotlar o‘rganildi va guruhlarga ajratildi [3,4].

O‘quv-usubiy va normativ hujjatlar kontent tahlili “O‘zbekiston – 2030” hamda strategiyasining ekologik barqarorlikka oid ustuvor yo‘nalishlari amaldagi ta’lim muassalarining ekologiya fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklari mazmunni tahlil qilindi. Tahlil davomida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar nisbati o‘zaro baholandi. Qiyosiy – pedagogik va mantiqiy umumiylashtirishga ko‘ra: Rivojlangan mamlakatlarning ekologik barqaror rivojlanishni tajriblarni o‘rganish va uzluksiz ta’lim tizimga amaliyot asosida singdirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini milliy ta’lim tizimi bilan qiyoslash mumkin. Buning natijasida amaldagi nazariy hamda amaliy bo‘shliqlar mantiqiy jihatdan umumlashtirish mumkin [7].

Adabiyotlar sharhi, amaldagi o‘quv dasturlar(sillabuslarni) hamda normativ hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida uzuliksiz ta’limda tizimida ekologiya va barqaror rivojlanish ta’limini joriy etishdagi mazmuniy yondashuvga ko‘ra quyidagicha yo‘nalishlarga ko‘ra tizimlashtirilidi.

1. Mazmuniy-nazariy nomutanosiblik: o‘quv va didaktik materiallar tahlilida shuni ko‘rishimiz mumkin ki, amaldagi ekologik ta’lim asosan an’anaviy-biologik va atributiv bilimlarga yo‘naltirilgani ko‘rishimiz mumkin.

- Darsliklardagi materiallarning aksariyat qismi tabiat hodisalariga va fauna va floraning nazariy tavsifga asoslangan.
- Barqaror rivojlanishning zamonaviy komponentlari: resurs tejamkorligi, iqlim o‘zgarishi, “yashil” iqtisodiyot hamda uglerod izini kamaytirish kabi amaliy tushunchalar o‘quv rejada yetarlicha tavsif etilmagan [3,4].

Natijada, o‘quvchilarda ekologik bilim shakllansa-da, uni kundalik turmushda foydalanishda madaniyat va kunlik tartibga aylantirishda muammoga duch kelinmoqda va ekologik ko‘nikmasi hosil bo‘lmayapti[4].

2. Fanlararo integratsiya darajasi: BMTning BRM 4.7 ta’lim tizimi yetarlicha tahlil qilib o‘rgatilmagani aniqlandi [2, 4].

- Ekologiya sohasini dars jarayonlarida biologiya va geografiya sohasining xususiy masalasi sifatida qaralashi.
- Boshqa fanlar ya’ni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘lanmagani. Bu orqali kompleks tushunishga to‘sqinlik qilmoqda.

3. Interaktiv va loyihaviy metodlarning yetishmasligi: ta’lim jarayonida qo‘llanilyotgan pedagogik texnologiyalar tahlili quyidagilarni ko‘rsatadi [6].

- O‘quv jarayonida ma’ruza darslari va nazariy axborotning ko‘pligi
- Loyihaga asoslangan darslarni tashkil etishda zarur bo‘lgan amaliy-uslubiy qo‘llanmalar tanqisligi
- Ta’lim muassasalarida ekologik amaliyotlarni yetarli darajada tashkil etilmaganligi.

4. Pedagog kadrlar kompetensiyasidagi bo‘shliqlar.

- Barqaror rivojlanish ta’limi metodikasi alohida majburiy modul sifatida to‘liq shakllanmagani
- Pedagoglar ekologiya bo‘yicha nazariy tushunchaga ega bo‘lsalarda, o‘quvchilarda ekologik madaniyat va ma’suliyatini shakllanlantirishda qiyinchiliklarga duch kelinishi kuzatiladi [3].

Jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim tizimida ekologiya va barqaror rivojlanish ta’limini joriy etish jarayonida nazariy bilim ustunlik qilib, ularni amaliy xulq-atvorga aylantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlamayapti. Olingan tahlillar Xalqaro Tashkilotlar ma’lumotlari va ilmiy adabiyotlarning xulosalari bilan mos keladi. Xususan ekologik muammolarning tor doirada o‘qitish o‘quvchilarda kompleks dunyoqarash va barqaror qaror qabul qilish ko‘nikmasini shaklantirishga to‘sqinlik qilmoqda [4]. Shuningdek, pedagog kadrlarning zamonaviy interaktiv metodikalari bilan ta’minlanmagani va ta’lim muassasalarida amaliy infratuzilmaning yetishmasligi tizimli muammo ekanligini tasdiqlaydi.

## XULOSA

Uzluksiz ta’lim tizimida ekologik madaniyatni yuksaltirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ta’lim mazmunini tubdan yangilash zarur. O‘rganishlar davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalrni ko‘rishimiz mumkin.

1. Fanlararo integratsiya kuchaytirish
2. Loyihaviy ta’limni joriy etish
3. Pedagoglar salohiyatini oshirish
4. Yashil maktab/universitet muhitini yaratish [5].

Markur chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilishi yosh avlodda ekologik ma’suliyatni shakllantirish hamda jamiyatda barqaror rivojlanishh madaniyatini yuksaltirilishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2023. https://lex.uz/uz/acts/-6600413

2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Sustainable Development Goal 4, Target 4.7. – 2015. https://sdgs.un.org/goals/goal4

3. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO, 2020

https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802

4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2017.

https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444

5. UNESCO. Green School Quality Standard: Greening Every Learning Environment. – Paris: UNESCO, 2024.

https://www.unesco.org/en/articles/green-school-quality-standard-greening-every-learning-environment

6. Yolcu, H. Using project-based learning in an environmental education course and revealing students' experiences: A case study. – Science Activities, 2023, Vol. 60, Issue 3, pp. 119–125.

https://doi.org/10.1080/00368121.2023.2205825

7. Ashrafi, M., Barghi, I., Maleki Avarsin, S., Yarigholi, B. A Comparative Study of the Objectives, Teaching Methods, Educational Content, and Assessment Strategies in Environmental Education within the Curricula of Selected Countries. Journal of Applied Studies in Education.

© **Namangan davlat pedagogika instituti** | **Tabiiy fanlar kafedrasi**
© "**Smart Quill Publishing" nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**